

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**ELEKTROTEXNIKA VA RADIOELEKTRONIKA MAHSULOTLARIDA XAVFLI
MODDALARNI ISHLATISHNI CHEKLASH TO‘G‘RISIDAGI TEXNIK REGLAMENTNI
TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-fevraldagi PQ-91-son [qarori](#) ijrosini ta‘minlash, shuningdek, elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlaridan foydalanishda xavfsizlikni ta‘minlash, xususan, ushbu mahsulotlarda xavfli moddalarni ishlatishni cheklashga doir yagona talablarni belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash talablari hamda ushbu mahsulotlarning muvofiqligini baholashni nazarda tutuvchi Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash to‘g‘risidagi texnik reglament [1-ilovaga](#) muvofiq;

Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash to‘g‘risidagi texnik reglamentni joriy etish sxemasi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Texnik reglament rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran o‘n sakkiz oy o‘tgach kuchga kiradi.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 17-fevraldagi 66-sonli [qarori](#) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.02.2026-y., 09/26/66/0162-son)

3. Energetika vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ushbu texnik reglamentning maqsadlari, mazmuni va mohiyati hamda uni qo‘llash tartibi to‘g‘risida aholi, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hamda tadbirkorlik subyektlarining keng xabardor qilinishini ta‘minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri J.T. Mirzamahmudov hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori A.R. Jumanazarov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2025-yil 15-avgust,
517-son

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-avgustdagi 517-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

**Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash
to‘g‘risida**

TEXNIK REGLAMENT

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Texnik reglament O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilayotgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklashga doir qo‘llanilishi va bajarilishi majburiy bo‘lgan yagona talablarni belgilaydi.

2. Ushbu Texnik reglament talablari ro‘yxati [1-ilovada](#) keltirilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlariga nisbatan tatbiq etiladi.

3. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari ushbu Texnik reglamentga, shuningdek, elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlariga tegishli amaldagi boshqa texnik reglamentlar

talablariga muvofiqligi tasdiqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqariladi.

4. Texnik reglament quyida keltirilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi:

davlat mudofaasi, huquqni muhofaza qilish organlari, shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining maxsus texnik vositalari uchun ishlatiladigan;

Texnik reglamentga 1-ildavda keltirilmagan o'zgaruvchan tokda 1000 V dan va o'zgaras tokda 1500 V dan yuqori bo'lgan;

Texnik reglamentga 1-ildavda keltirilmagan elektrotexnika jihozlarning tarkibiy qismlari sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan;

fotoelektrik panellar (quyosh batareyalari);

yerusti va orbital kosmik obyektlar tarkibida foydalanish uchun mo'ljallangan mahsulotlar;

faqat havo, suv, yerosti va yerusti transportida foydalanish uchun mo'ljallangan elektr jihozlari;

elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari tarkibiy qismi sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan elektr batareyalari va akkumulyatorlar;

oldin foydalanilgan va (yoki) foydalanishda bo'lgan jihozlari;

katta statsionar sanoat jihozlari;

o'lchash vositalari;

tibbiyot buyumlari;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun maxsus loyihalashtirilgan jihozlari.

5. Ushbu Texnik reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi:

bir xil (bir turdagi) material — doimiy tarkibga ega bo'lib, bitta moddadan yoki moddalar va materiallarning birikmasidan iborat bo'lgan, ularni mexanik ravishda ajratib bo'lmaydigan mahsulotlar;

import qiluvchi — elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan tashqi savdo bitimini tuzib, ushbu mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqaradigan va uning Texnik reglament talablariga muvofiqligi uchun javobgar bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

ishlab chiqaruvchi — O'zbekiston Respublikasi hududida elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish va muomalaga kiritish bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanuvchi hamda ushbu uskunalarining Texnik reglament talablariga muvofiqligi uchun javobgar bo'lgan yuridik shaxs, shu jumladan, xorijiy ishlab chiqaruvchi;

elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari — to'g'ridan-to'g'ri foydalanishga mo'ljallangan mashinalar, mexanizmlar, apparatlar, moslamalar va qurilmalar ichiga o'rnatilgan elektr toklari va (yoki) elektromagnit maydonlarning mavjudligi, ishlatilishi, hosil bo'lishi, konversiyasi, uzatilishi va taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlar;

elektr o'yinchoq — elektr energiyasi hisobidan kamida bitta funktsiyani bajaradigan o'yinchoq.

2-bob. Xavfli moddalarni qo'llashni cheklash bo'yicha talablar

6. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari ishlab chiqarilishi va tayyorlanishida ularning tarkibida ro'yxati ushbu Texnik reglamentga 2-ildavda keltirilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari tarkibidagi bir xil turdagi (gomogen) materiallardagi xavfli moddalar belgilangan konsentratsiyadan ortiq bo'lmasligi kerak.

7. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlariga nisbatan xavfli moddalardan foydalanishni cheklash 3-ildavda keltirilgan maxsus talablarga asosan bekor qilinadi.

3-bob. Qadoqlash, tamg'lash va foydalanish hujjatlariga qo'yiladigan talablar

8. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining foydalanish hujjatlari davlat tilidagi pasport, o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash yo'riqnomasi hamda undan foydalanish qo'llanmasini o'z ichiga olishi kerak.

9. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotining nomi va (yoki) belgilanishi (turi, markasi, modeli (agar mavjud bo'lsa), uning asosiy parametrlari va xususiyatlari, ishlab chiqaruvchining nomi va (yoki) tovar belgisi, elektrotexnika va radioelektronika mahsuloti ishlab chiqarilgan davlat nomi, ushbu mahsulotning qo'llanishi unga biriktirilgan texnik hujjatlarida ko'rsatilishi kerak.

Qadoqlarga elektrotexnika va radioelektronika mahsulotining nomi (turi, markasi, modeli (agar mavjud bo'lsa), ishlab chiqaruvchining nomi va (yoki) tovar belgisi joylashtirilishi kerak.

10. Ushbu Texnik reglamentning 9-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlarni elektrotexnika va radioelektronika mahsuloti yuzasiga joylashtirish imkoni bo'lmagan taqdirda, ushbu mahsulotga biriktirilgan foydalanish hujjatlarida ko'rsatilishi mumkin.

11. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotining tamg'asi ko'rish uchun qulay bo'lgan joyga oson o'qiladigan va tushunarli yozilgan bo'lishi, foydalanish davrida o'chib ketmasligi hamda tekshirilishida qo'shimcha qurilmalar talab etilmasligi kerak.

12. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining foydalanish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

ushbu Texnik reglamentning 9-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar;

mahsulotning xususiyatlari va parametrlari;

foydalanish sharoitida atrof-muhitni muhofaza etish choralari va qoidasi (ishlatilishi), o'rnatish, saqlash, tashish (tashishni tashkil etish), mahsulotni sotuvga chiqarish va yo'q qilish (zarur hollarda);

mahsulotning noto'g'ri ishlashi aniqlanganda ko'riladigan choralar to'g'risidagi ma'lumot; ishlab chiqaruvchining (ishlab chiqaruvchining vakolatli shaxsining), import qiluvchining nomi va joylashgan joyi, ular bilan bog'lanish ma'lumotlari;

mahsulot ishlab chiqarilgan oy va yil yoki bunday ma'lumot qo'llanadigan joy yoki ishlab chiqarilgan yilni aniqlash usuli to'g'risidagi ma'lumot.

13. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining jamlanmasi bilan birga taqdim qilinadigan tamg'alash va texnik hujjatlarida foydalanilgan kattalik birliklari qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llaniladi. Eksport uchun mo'ljallangan mahsulotlarda yuqoridagi talablar eksport qilinayotgan davlat qonunchiligi talablariga mos bo'lgan holda amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

14. Foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar qog'oz shaklida bo'lishi lozim. Ularga elektron tashuvchi ko'rinishdagi hujjatlar to'plami ham qo'shilishi mumkin. Maishiy bo'lmagan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari to'plamiga kiritilgan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma faqat elektron axborot tashuvchilar orqali amalga oshirilishi mumkin.

4-bob. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining texnik reglament talablariga muvofiqligini ta'minlash

15. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining ushbu Texnik reglamentga muvofiqligi uning xavfli moddalardan foydalanishni cheklash bo'yicha talablar mos kelishi orqali ta'minlanadi.

Ushbu Texnik reglament talablariga muvofiq bo'lmagan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlariga muvofiqlik belgisi qo'yilmaydi va O'zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilmaydi.

16. Ushbu Texnik reglament talablariga ixtiyoriy ravishda rioya etilishini ta'minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, namunalar olish, sinash va o'lchash usullarini belgilaydigan standartlar O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tasdiqlanadigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

5-bob. Muvofiqlikni baholash

17. O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqariladigan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining ushbu Texnik reglament talablariga muvofiqligi baholanishi shart.

Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining ushbu Texnik reglamentning talablariga muvofiqligini tasdiqlash muvofiqlikni deklaratsiya qilish yoki sertifikatlashtirish shakllarida amalga oshiriladi.

18. Majburiy tartibda muvofiqligi baholanishi lozim bo'lgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining ro'yxati ushbu Texnik reglamentga [1-ildovada](#) keltirilgan.

19. Ushbu Texnik reglamentda keltirilgan majburiy tartibda muvofiqligi deklaratsiya qilinadigan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining muvofiqligi ariza beruvchining ixtiyoriga ko'ra sertifikatlashtirish shaklida tasdiqlanishi mumkin.

20. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining Texnik reglament talablariga muvofiqligi quyidagi sxemalarning birini qo'llash bilan deklaratsiya qilish orqali tasdiqlanadi:

1D sxema — seriyali ishlab chiqarilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari uchun ariza beruvchining o'z dalillariga asosanib muvofiqlikni e'lon qilishda qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi yoki u tomondan vakolat berilgan yuridik shaxs hisoblanadi;

2D sxema — elektrotexnika va radioelektronika mahsuloti to'pi yoki yagona mahsulot uchun ariza beruvchining o'z dalillari asosida muvofiqlikni e'lon qilishda qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolat bergan yuridik shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi;

3D sxema — seriyali ishlab chiqarilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsuloti uchun sinov laboratoriyasi ishtirokida olingan dalillar va ariza beruvchining o'z dalillari (agar mavjud bo'lsa) asosida muvofiqlikni deklaratsiya qilishda qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi yoki u tomondan vakolat berilgan yuridik shaxs hisoblanadi;

4D sxema — elektrotexnika va radioelektronika mahsuloti to'pi yoki yagona mahsulot uchun, sinov laboratoriyasi ishtirokida olingan dalillar va ariza beruvchining o'z dalillari (agar mavjud bo'lsa) asosida muvofiqlikni deklaratsiya qilishda qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolat bergan shaxs yuridik shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi;

6D sxema — ishlab chiqaruvchi menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan sertifikatlanib, joriy etilgan menejment tizimiga ega bo'lgan seriyali ishlab chiqarilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari uchun qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi yoki u tomondan vakolat berilgan yuridik shaxs hisoblanadi.

21. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining ushbu Texnik reglament talablariga sertifikatlashtirish orqali muvofiqligini tasdiqlash quyidagi sxemalarning birini qo'llash bilan amalga oshiriladi:

1S sxema — seriyali ishlab chiqariladigan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolat bergan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarning muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

2S sxema — ishlab chiqaruvchida menejment tizimlarining sertifikati mavjud bo'lgan turkum ishlab chiqarilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari uchun qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolat bergan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarning muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

3S sxema — elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining to'pi uchun qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolat bergan shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarning muvofiqlik belgisi bilan (import qilingan mahsulotlar ariza beruvchiga qulay shaklda) tamg'alanishini ta'minlaydi;

6S sxema — tayyor elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining sinov va o'lchashlarida Texnik reglament talablariga muvofiqligini to'liq tasdiqlash imkoni mavjud bo'lmaganda hamda ishlab chiqaruvchida menejment tizimlarining sertifikati mavjud bo'lgan turkum ishlab chiqarilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari uchun qo'llanadi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolat bergan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi.

22. Muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-avgustdagi 502-son **qarori** bilan tasdiqlangan Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi hamda Xavf darajasi yuqori bo'lmagan mahsulotlarning muvofiqligini deklaratsiyalash yo'li bilan tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomlar talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

23. Seriyali ishlab chiqariladigan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari uchun muvofiqlik sertifikatini 3 yilga rasmiylashtiriladi. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining to'pi uchun muvofiqlik sertifikatini uning yaroqlilik yoki kafolat muddatiga rasmiylashtiriladi.

24. Foydalanish hujjatlari, shu jumladan, muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar:

seriyali ishlab chiqarilgan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlar uchun — ishlab chiqaruvchi yoki uning vakolatli vakili tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqarish tugatilgan kundan boshlab 5 yildan kam bo'lmagan muddatda;

elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari to'pi uchun — import qiluvchi yoki uning vakolatli vakili tomonidan to'pdan oxirgi mahsulot sotilgan kundan boshlab 5 yildan kam bo'lmagan muddatda saqlanadi.

6-bob. Mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'lash

25. Ushbu Texnik reglament **5-bobi** talablariga muvofiqligi tasdiqlangan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishi shart.

26. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari muvofiqlik belgisi bilan ular muomalaga chiqarilishidan oldin tamg'alanadi.

27. Muvofiqlik belgisi har bir elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining o'ziga hamda unga ilova qilinadigan foydalanish hujjatlariga qo'yiladi. Agarda elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlariga muvofiqlik belgisini bevosita qo'yishning imkoni bo'lmasa, u holda ushbu belgini mahsulot qadog'iga qo'yishga ruxsat etiladi hamda unga ilova qilinadigan foydalanish hujjatlarida ko'rsatiladi.

7-bob. O'tish davri

28. Ushbu Texnik reglament kuchga kirgan vaqtdan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan hamda elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari uchun xavfsizlik talablarini belgilaydigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar Texnik reglament bilan moslashtirilguniga qadar ushbu Texnik reglamentga zid bo'lmagan qismlari amalda qo'llanadi.

29. Texnik reglament kuchga kiringunga qadar elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlari uchun olingan muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar ushbu hujjatlarda belgilangan muddatlar davomida amalda bo'ladi.

8-bob. Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati

30. Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, shuningdek, boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9-bob. Texnik reglament talablari buzilgani uchun javobgarlik

31. Ushbu Texnik reglament talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash to'g'risidagi
texnik **reglamentga**
1-ILOVA

Texnik reglament talablari tatbiq etiladigan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining

RO'YXATI

T/r	Mahsulotlarning nomlanishi	TIF TN kodi
------------	-----------------------------------	--------------------

1.	Elektr yoki boshqa turdagi sovitkichlar, muzlatkichlar va boshqa sovitish yoki muzlatish uskunalari:	8418 10 200
		1
		8418 10 800
		1
		8418 21
		8418 29 000
		0
		8418 30 200
		1
		8418 30 800
		1
		8418 40 200
		1
		8418 40 800
		1
	idish-tovoqlarni yuvish mashinalari elektrplitalar (kamida bug‘ shkafi va pishirish paneliga, pechkaga ega), maishiy elektrisitkichlar, elektrshkaflar, o‘rnatilgan pechlar, qovurish shkaflari, meva, sabzavot, rezavorlar, qo‘ziqorinlar uchun elektrquritkichlar, choynaklar, kofe qaynatkichlar va kofe mashinalar, chaqaloq oziq-ovqat isitgichlari, bug‘qozonlar, sterilizatorlar	8422 11
		8516 10 800
		0
		8516 60 101
		0
		8516 60 109
		0
		8516 60 500
		0
		8516 60 800
		0
		8516 60 900
		0
		8516 79 700
		0
	mikroto‘lqinli pechlar oshxona chiqindilarini maydalash uchun mo‘ljallangan maydalagichlar elektrgrillar, kontaktgrillar, aerogrillar, elektrqo‘ralar, elektrtosterlar, vafli tayyorlash uskunasi (vafelnitsa), qizdirilgan yog‘da qovurish uskunasi (friturnitsa), barbekyu, nonpishirgich, raklettayyorlagichlar (raklelnitsa), yogurt tayyorlash uskunasi (yogurtnitsa), multivarkalar, elektrtovoqlar	8516 71 000
		0
		8516 50 000
		0
		8509 80 000
		0
		8516 60 700
		0
		8516 60 900
		0
		8516 72 000
		0
		8516 79 200
		0
		8516 79 700
		0
	ozuq-ovqatlarni maydalagichlar va mikserlar, jumladan, kofe maydalagichlar, oshxona kombaynlari, oziq-ovqat protsessorlari, sharbatsiqqichlar, yog‘urgichlar, go‘shmaydalagichlar, blenderlar, qirg‘ichlar, ko‘pirtirgichlar, kartoshka tozalagichlar, muzqaymoqtayyorlagichlar, pichoqlar, pichoqcharxlagich, to‘g‘ragichlar, parrakkesgichlar, donmaydalagichlar.	8509 40 000
		0
		8509 80 000
		0

2.	Choyshablar, kiyimlar va poyabzallarga ishlov berish — yuvish, dazmollash, quritish, tozalash:	
	kir yuvish mashinalari, maishiy yoki kir yuvish xonalari uchun mashinalar, shu jumladan, siqish funksiyasi bilan jihozlangan mashinalar, oʻrnatilgan markazdan qochuvchi siquv moslamasi boʻlgan boshqa mashinalar	8450 11 110 0 8450 11 190 0
		8450 11 900 0
		8450 12 000 0
		8450 19 000 0
	sentrifugalar, shu jumladan, markazdan qochma quritkichlar	8421 12 000 0
		8421 19 700 9
	ultratovushli kir yuvish asboblari	8450 19 000 0
	bugʻni yoki qumni purkab irgʻituvchi va shu kabi irgʻituvchi qurilmalar, elektr dazmollar	8424 30 900 0*
		8424 89 000 3*
		8516 40 000 0
		8516 79 700 0
	sochiq va kiyim uchun elektrquritgichlar	8516 79 700 0
	Binolarni tozalash va tartibga keltirish:	
	changsoʻrgichlar	8508
	poloterlar, elektr choʻtkalar, bugʻli polartkichlar, suv yutuvchi tozalash qurilmalari	8509 80 000 0
		8516 79 700 0
		8424 30 900 0*
		8424 89 000 9*
	havodagi mikroiklim sharoitini saqlash va boshqarish ventilyatorlar	8414 51 000 9
	konditsionerlar	8415 10 8415 81 009 9
		8415 82 000 9
		8415 83 000 9
	bugʻlatkichlar va kondensatorlar, namlagichlar	8509 80 000 0
	kalpaklar va dudburonlar	8414 60 000

		8421 39 200 8
	issiqlik saqlovchi elektrkaminlar, elektradiatorlar, hayvonlar va o'simliklarni ko'paytirishda ishlatiladigan elektrisitgichlar, yopiq binolarni isitish (isitish, qizdirish) uchun elektr asboblari, isitkich parraklari, konvektorlar elektrisitish qarshiliklari (issiq pol tizimlari)	8516 21 000 0 8516 29 8516 80
3.	Sanitariya-gigiyena maqsadlari uchun mo'ljallangan: suvisitkichlar dush kabinalari, hojatxona uchun o'zgaruvchan tok manbaiga ulangan yoritkichlar, isitkichlar	8516 10 3922 10 000 0 3922 20 000 0 3922 90 000 0 7324 90 000 9 (qismlaridan tashqari) 8516 79 700 0 9019 10 900 1
	og'iz bo'shlig'i uchun foydalaniladigan gigiyena qurilmalari sauna pechkalari uchun ishlatiladigan elektrisitish qurilmalari Soch, tirnoq va terini parvarishlash uchun: yuz uchun elektrsaunalar sochquritkichlar, staylerlar, soch turmaklash qurilmalari, sochtekislagich, sochni parvarish qilish uchun elektr bigudiylar, soch uchun elektrqistirmalar qo'llar uchun elektrquritkichlar Tanani isitish uchun: elektrovibrouqalash apparatlari (shifokor nazoratisiz) gidrouqalash vannalari O'yin, sport va mashq uskunalari: elektr ta'minotiga ulangan o'yin, sport va mashq uskunalari Audio va videoapparatlar, tele va radioefirlarni qabul qiluvchi: audio va videotasmalarni yozuvchi hamda audio va videotasmalarni ko'rsatuvchi qurilmalar	8509 80 000 0 8516 29 990 0 8516 79 700 0 8516 31 000 9 8516 32 000 0 8516 33 000 0 9019 10 100 0 9019 10 900 1 9504 90 800 9 9506 91* 8519 8521 8527 8528 49 8528 59 8528 69 8528 72

	radio qabul qiluvchi asbob-uskunalar	8527
	televizion qabul qiluvchilar, teletyunerlar, sun'iy yo'ldosh teletyunerlari	8528 71
		8528 72
	dinamik tizimlar	8518 21 000
		0
		8518 22 000
		0
		8518 29
	videotelefonlar, interkomlar	8517 69 100
		0
	maishiy tikuv mashinalari	8452 10
	overlokklar	8452 10 190
		0
	trikotaj, elektr to'qish-tikish mashinalari	8447
	4. Quvvat manbalari, zaryadlovchi, kuchlanish stabilizatorlari:	
	maishiy texnika uskunolari	8504 40 300
		8
		8504 40 830
		0
		8504 40 910
		0
	akkumulyatorlarni zaryadlovchi qurilmalar	8504 40 550
		0
	Bog'dorchilik va polizchilik xo'jaligi uchun:	
	o't o'rish mashinasi, trimmerlar — maysa va o'tlarni kesish uchun	8433 11 100
		0
		8433 19 100
		0
	Ventilyatsion changso'rgichlar	8508 60 000
		0
	sog'uvchi qurilmalar	8434 10 000
		0
	Akvarium va bog' ko'llari uchun:	
	kompressorlar	8414 80 900
		9
	nasoslar	8413 70
		8413 81 000
		0
	isitkichlar	8516 10 800
		0
	elektryoritkichlar va yoritish uskunolari	9405 41 001
		2*
		9405 41 001
		9*
		9405 41 002
		2*
		9405 41 002
		9*
		9405 41 003
		2*
		9405 41 003
		9*

	9405 42 001
	2*
	9405 42 001
	9*
	9405 42 002
	2*
	9405 42 002
	9*
	9405 42 003
	2*
	9405 42 003
	9*
	9405 49 001
	9*
	9405 49 002
	2*
	9405 49 002
	4*
	9405 49 002
	9*
	9405 49 003
	2*
	9405 49 003
	4*
	9405 49 003
	9*
suvni tozalovchi va filtrlovchi uskunalar uchun — elektr filtrlar, sterilizatorlar, elektroziqlantirgichlar	8421 21 000
	9
bogʻ uchun dekorativ favvoralar — elektr uzatmali nasoslar	8509 80 000
	0
	8413 70
	8413 81 000
	9
ichimlik suvi, suv taʼminoti, yakka tartibdagi uylar, kottejlar uchun elektronasoslar	8413 50 690
	9
	8413 50 800
	9
	8413 60 390
	9
	8413 60 690
	9
	8413 60 700
	9
	8413 60 800
	9
	8413 70 210
	9
	8413 70 290
	9
	8413 70 300
	9

		8413 70 350 9
		8413 70 450 9
		8413 70 510 9
		8413 70 590 9
		8413 70 650 9
		8413 70 810 9
		8413 70 890 9
	Yoritish manbai va yoritish uskunalari: Cho‘g‘lanma lampalar, elektrlampalar, yorug‘lik chiqaradigan diod (LED) lampalar	8539 21 920 0
		8539 21 980 0
		8539 22
		8539 29 920 0
		8539 29 980 0
		8539 31
		8539 51 101 4
		8539 51 101 5
		8539 51 101 6
		8539 51 101 9
		8539 51 102 2
		8539 51 102 9
		8539 51 109 3
		8539 51 109 9
		8539 51 201 2
		8539 51 201 3
		8539 51 201 4
		8539 51 201 9
		8539 51 202 2
		8539 51 202 9

		8539 51 209 2
		8539 51 209 9
		8539 51 300 0
		8539 51 401 2
		8539 51 401 9
		8539 51 402 2
		8539 51 402 9
		8539 51 409 3
		8539 51 409 4
		8539 51 409 9
		8541 41 000
	umumiy maqsadlar uchun yoritish lampalari	9405 11 001 3*
		9405 11 001 4*
		9405 11 001 5*
		9405 11 001 9*
		9405 11 002 2*
		9405 11 002 9*
		9405 11 003 3*
		9405 11 003 9*
		9405 19 001 3*
		9405 19 001 8*
		9405 19 001 9*
		9405 19 002 9*
		9405 19 003 6*
		9405 19 003 9*
		9405 21 001 2*

	9405 21 001
	3*
	9405 21 001
	4*
	9405 21 001
	9*
	9405 21 002
	2*
	9405 21 002
	9*
	9405 21 003
	2*
	9405 21 003
	9*
	9405 29 001
	2*
	9405 29 001
	4*
	9405 29 001
	9*
	9405 29 002
	9*
	9405 29 003
	2*
	9405 29 003
	9*
	9405 41 002
	2*
	9405 41 002
	9*
	9405 41 003
	9*
	9405 42 002
	2*
	9405 42 002
	9*
	9405 42 003
	9*
	9405 49 002
	2*
	9405 49 002
	4*
	9405 49 002
	9*
	9405 49 003
	2*
	9405 49 003
	4*
	9405 49 003
	9*
yerga oʻrnatilgan yoritish lampasi, akvariumlar uchun lampalar	9405 41 001
	2*

		9405 41 001 9*
		9405 41 002 2*
		9405 41 002 9*
		9405 41 003 9*
		9405 42 001 2*
		9405 42 001 9*
		9405 42 002 2*
		9405 42 002 9*
		9405 42 003 9*
		9405 49 001 9*
		9405 49 002 2*
		9405 49 002 4*
		9405 49 002 9*
		9405 49 003 2*
		9405 49 003 4*
		9405 49 003 9*
	projektorlar	9405 41 001 2*
		9405 41 001 9*
		9405 42 001 2*
		9405 42 001 9*
		9405 49 001 9*
	Yangi yil archalarini bezash uchun ishlatiladigan nurli tizimlar — shu jumladan, archa uchun yorug‘lik diodlari	9405 31 000 0*
		9405 39 000 0*
5.	Elektr o‘yinchoqlar	9503 00
6.	Shaxsiy elektron hisoblash mashinalari — kompyuterlar: hisoblash mashinalari va ularning bloklari	8471 30 000 0 8471 41 000

		8471 49 000 0 8471 50 000 0 8470 50 000 8471 49 000 0
7.	Shaxsiy elektron kompyuterlarga ulangan uskunalar: printerlar	8443 31 8443 32 100 9 8443 32 910 8443 32 930 0 8443 32 990 0 8443 39 8472 10 000 0
	monitorlar	8519 8521 8527 8528 42 100 0 8528 52 100 0 8528 52 900 0 8528 59 900 0
	uzluksiz quvvat manbalari	8504 40 300 8
	faol dinamik tizimlari	8518 21 000 0 8518 22 000 0
	multimediali proyektorlar	8518 29 8528 69 8528 62 100 0
	ko'p funksiyali qurilmalar uzatish qurilmasi (udliniteli)	8443 31* 8544 42 900 9
	noutbuk	8471 30 000 0
	planshetlar va boshqa kichik o'lchamli kompyuterlar	8471 30 000 0
	klaviaturalar, manipulyatorlar, trekerlar va boshqa nazorat va kiritish qurilmalari (kompyuter sichqonchasi, joystiklari, ko'zoynaklar)	8537 10 980 9 8471 30 000 0

	akustik quloqchin tizimi	8518 21 000 0
		8518 22 000
		8518 29
	biometrik ma'lumotlarni o'quvchi qurilmalar	8471
		9031 49 900
		0
		9031 80 380
		0
	modemlar	8517 62 000
		9
	payvandlash uchun mashina va apparatlar	8515 31 000
		0
		8515 39 130
		0
		8515 39 180
		0
		8515 39 900
		0
	purkagichlar — yonmaydigan suyuqlik purkovchi	8424 20 000
		0*
8.	Doimiy va o'zgaruvchan nominal kuchlanishi 500 V dan ko'p bo'lmagan joyda qo'llanadigan kabellar, simlar va shnurlar (optik tolalar bundan mustasno).	8544 11, 8544 19, 8544 20, 8544 30, 8544 42, 8544 49 910 1 8544 49 930 8544 49 950 1 8544 49 950 9 8544 60, 8544 70
9.	Avtomatik o'chirgichlar va o'chirish himoya qurilmalari: avtomat o'chirib-yoqgichlar	8535 21 000 0
		8535 90 000
		8536 20 100
		7
		8536 20 900
		7
		8536 30
	sanoat elektrulagichlari	8535 90 000
		1
		8535 90 000
		8
		8536 90 100
		0
	maishiy va sanoatda foydalanish uchun saqlagichlar (predoxranitellar)	8535 10 000
		0 8536 10

	kontaktqisqich — vintli va vintsiz, qisqich to‘plamlari, kleymali kolodka, ulash qurilmalari	8535 90 000 1 8536 90 010 0 8536 90 100 0
	o‘zgaruvchan yoki doimiy tarmoqlardan boshqariladigan, umumiy maqsadli, 1000 A gacha bo‘lgan nominal toklar uchun doimiy va o‘zgaruvchan elektromagnit kontaktorlar	8535 30 100 0 8535 90 000 1 8536 41 8536 49 000 0
	elektromagnit boshlagichlar — dengiz va portlashga qarshi elektromagnit boshlagichlar bundan mustasno	8535 90 000 8536 30 8536 50 8537 10
	1000 V gacha kuchlanish uchun to‘liq qurilmalar Turar joy binolari uchun yoritish shitlari, jamoat binolari uchun elektruzatish shchitlari, turar joy va jamoat binolari uchun kirish va tarqatish moslamalari, jamoat va ishlab chiqarish binolari uchun yoritish shchitlari	8537 10 910 0 8537 20 920 0
10.	Elektr qurilmalarni boshqarish uchun elektr qurilmalar: boshqaruv va himoya relesi	8535 90 000 8 8536 41 8536 49 000 0
	elektr va elektromexanik qurilmalar, elektr qurilmalarni boshqarish mexanizmlari uchun kommutatsiya elementlari termostatlar dasturiy qurilmali elektrkalitlar (vklyuchatellar)	8535 8536 9032 10 8535 30 900 1 8535 90 000 8 8536 50 8537 10 910 0
	mexanik qulflash funksiyasiga ega bo‘lgan elektr shoshilinch to‘xtash qurilmalari	8535 90 000 8 8536 50
	avtomatik kommutatsiya qurilmalari	8535 90 000 8 8536 50 8536 90 850 9 8537 10 980 9 8537 20 920 0
	kommutatsiya nazorat va himoya qurilmalari	8535 90 8536 30 8537 10

	impulsli katta kuchlanishdan himoyalovchi qurilma — katta kuchlanishni chegaralovchi	8537 20 8535 40 000 0 8536 30
	element kommutatorlari, buyruq moslamalari, tekshirgichlar, barabanli oʻtkazgichlar, qoʻlda ishga tushirgichlar, turli xil oʻchirgichlar	8535 30 8535 90 8536 50 8537 10 910 0 8537 20
	universal, kichik gabaritli, shoxsimon, qaytargichli, kalitli vklyuchatellar va pereklyuchatellar	8535 30 8535 90 8536 50
	oʻchirgichlar va yoʻloʻtkazgichlar, yoʻl oʻchirgichlari bloklari, mikrooʻchirgichlar (mikrooʻtkazgichlar)	8535 30 8535 90 8536 50
	boshqarish tugmalari, tugmachani boshqarish postlari, stansiyalar, apparatlar	8535 30 8535 90 8536 50 8537 10 8537 20
	mustaqil faoliyat koʻrsatadigan maishiy elektr asboblari uchun avtomatik boshqarish qurilmalari	8537 10 910 0 8537 20
	elektr asboblari uchun oʻchirgichlar va qaytaulagichlar	8535 30 8535 90 8536 50
11.	Elektr aloqa vositalari (terminal va telekommunikatsiya uskunalari), jumladan, statsionar va mobil telefonlar, avtomat telefonlar, telefakslar, telekslar	8517 61 000 1 8517 61 000 8 8517 11 000 0 8517 13 000 0 8517 14 000 0 8517 18 000 0 8443 32 300 0 8517 62 000 8517 61 000 1 8517 61 000 8 8525 60 000 0
	Koʻchma va portativ radiostansiyalar	
12.	Savdo va oʻyin avtomatlari	8476
13.	Yongʻindan saqllovchi uskunalar	8424 10 000 9*

	8424 89 000 9* 8531 10
--	------------------------------

* Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining muvofiqligini tasdiqlash muvofiqlikni deklaratsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash to'g'risidagi
texnik reglamentga
2-ILOVA

**Ruxsat etilgan darajadagi xavfli moddalarni o'z ichiga olgan bir xil turdagi (gomogen)
materiallar konsentratsiyasi ro'yxati**

T/r	Xavfli moddalar nomlanishi	Xavfli moddalarni o'z ichiga olgan bir xil (bir turdagi) materiallardagi konsentratsiyasi mahsulot massasiga nisbatan quyida keltirilgan foizlardan ko'p bo'lmasligi lozim
1.	Qo'rg'oshin	0,1
2.	Simob	0,1
3.	Kadmiy	0,01
4.	Olti valentli xrom	0,1
5.	Polibromlangan difenillar (PBB)	0,1
6.	Polibromlangan difenil efirlar (PBDE)	0,1
7.	Dioktilftalat (DEHP)	0,1
8.	Benzilbutilftalat (BBP)	0,1
9.	Dibutilftalat (DBP)	0,1
10.	Diizobutilftalat (DIBP)	0,1

Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash to'g'risidagi
texnik reglamentga
3-ILOVA

**Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlariga nisbatan xavfli moddalardan
foydalanishni cheklashni bekor qilish bo'yicha**

MAXSUS TALABLAR

T/r	Maxsus talablar	Maxsus talablarning amal qilish muddati
Bir bazali ixcham lyuminessent lampalarda simob miqdori har bir lampada quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak:		
1.	Maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan lampalar uchun 5 mg (umumiy yoritishdan boshqa)	2027-yil 24-fevralgacha
2.	Ultrabinafsha spektrga asosan yorug'lik chiqarishga mo'ljallangan lampalar uchun 5 mg	2027-yil 24-fevralgacha
Lyuminessent lampalardagi simob miqdori har bir lampada quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak:		
3.	Naycha diametri 17 mm dan katta fosforli galofosfat chiziqli bo'lmagan lampalar uchun 15 mg	2026-yil 24-fevralgacha, 2026-yil 25-fevraldan 2027-yil 24-fevralgacha 10 mg dan foydalanish mumkin.
4.	Umumiy yoritish va maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan lampalar uchun (masalan, induksion lampalar) 15 mg	2027-yil 24-fevralgacha

5	Ultrabinafsha spektrga asosan yorug'lik chiqarishga mo'ljallangan lampalar uchun 15 mg	2027-yil 24-fevralgacha
6	Favqulodda lampalar uchun 15 mg	2027-yil 24-fevralgacha
Sovuq katodli lyuminessent lampalardagi simob va tashqi elektrodli lyuminessent lampalardagi simob har bir lampada quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak:		
7.	Uzunligi 500 mm ga teng yoki kichik bo'lgan lampalar uchun 3,5 mg	2027-yil 24-fevralgacha
8.	Uzunligi 500 mm dan katta 1500 mm teng yoki kichik bo'lgan lampalar uchun 5 mg	2027-yil 24-fevralgacha
9	Uzunligi 1500 mm katta bo'lgan lampalar uchun 13 mg	2027-yil 24-fevralgacha
10.	Past bosimli gaz razryadli lampalardagi simob, bunda qo'llash uchun chiroq spektrining asosiy diapazoni ultrabinafsha spektrda bo'lishi talab qilinadi. 15 mg dan ko'p bo'lmasligi kerak	2027-yil 24-fevralgacha
11.	Umumiy yoritish uchun mo'ljallangan yuqori bosimli natriyli (bug'li) lampalarda rang ko'rsatishi $R_a > 80$ bo'lgan lampalardagi quvvat $R \leq 105$ W simob 16 mg dan oshmasligi kerak.	2027-yil 24-fevralgacha
Umumiy yoritish uchun boshqa yuqori bosimli natriyli lampalardagi simob har bir lampada quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak:		
12.	Quvvati 155 W ga teng yoki kichik bo'lgan lampalar uchun 20 mg	2027-yil 24-fevralgacha
13.	Quvvati 155 W dan ko'p, lekin 405 W ga teng yoki kichik bo'lgan lampalar uchun 25 mg	2027-yil 24-fevralgacha
14.	Quvvati 405 W dan katta bo'lgan lampalar uchun 25 mg	2027-yil 24-fevralgacha
15.	Ushbu ilovada alohida qayd etilmagan maxsus maqsadlar uchun boshqa lampalardagi simob cheklanmaydi	2027-yil 24-fevralgacha
Yoritilgan belgilar va binolarni dekorativ yoritish uchun maxsus gaz razryadli lampalardagi simob quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak:		
16.	Elektr nurlari naychalari oynasidagi qo'rg'oshin cheklanmaydi	Doimiy
17.	Lyuminessent lampalarning shishalari (naychalari) stakanida qo'rg'oshin 0,2 % gacha	Doimiy
18.	Shamollatish va sovitish tizimlarida sovitkich o'z ichiga olgan kompressorlar uchun mo'ljallangan tekis rulmanlarning korpuslari va laynerlarida qo'rg'oshin cheklanmaydi	Doimiy
19.	Yorug'lik uzatuvchi rangsiz oyna va optik tizimlarning linzalarida qo'rg'oshin miqdori cheklanmagan	Doimiy
20.	Reflektiv standart namunalari va svetofiltrlarda qo'rg'oshin va kadmiy cheklanmaydi	Doimiy
21.	Gaz razryadli lampalardagi qo'rg'oshin sifatida foydalaniladigan chiroqlarining lyuminessent kompozitsiyalarini faollashtiruvchisi cheklanmaydi	Doimiy
22.	SED-displeylarida qo'rg'oshin oksidi (sirt o'tkazuvchanligi sababli elektron emissiya ko'rsatkichlari) cheklanmaydi	Doimiy
23.	Kristall shishadagi qo'rg'oshin birikmalari cheklanmaydi	Doimiy
24.	Ovoz balandligi kamida 100 dBA bo'lgan karnaylarning ovozli spiralidagi elektromexanik ulanish uchun qotishma elementi sifatida ishlatiladigan kadmiy cheklanmaydi	Doimiy
25.	SED-displeylarida qo'rg'oshin oksidi (sirt o'tkazuvchanligi sababli elektron emissiya ko'rsatkichlari) cheklanmaydi	Doimiy
26.	Kristall shishadagi qo'rg'oshin birikmalari cheklanmaydi	Doimiy

27.	Ovoz balandligi kamida 100 dBA bo'lgan karnaylarning ovoqli spiralidagi elektromexanik ulanish uchun qotishma elementi sifatida ishlatiladigan kadmiy cheklanmaydi	Doimiy
28.	Suyuq kristalli displeylarda tekis lyuminessent lampalarni o'rnatish uchun qotishma elementi sifatida qo'rg'oshin cheklanmaydi	Doimiy
29.	Kuchlanish transformatorlarining qotishma elementi sifatida qalinligi 100 μ m dan ko'p bo'lmagan mis simlarini kavsharlash uchun qo'rg'oshin cheklanmaydi	Doimiy
30.	Keramika potensiometrilarida qo'rg'oshin cheklanmaydi	Doimiy
31.	Plazmadagi katodni barqarorlashtirish uchun simob displeylar — 1 plazma paneli uchun 30 mg dan oshmasligi kerak	Doimiy
32.	Shisha keramika va berilliy oksidiga asoslangan hollarda yuqori voltli diodlarning qoplama qatlamlarida qo'rg'oshin cheklanmaydi	Doimiy
33.	Yorug'lik va displey tizimlari uchun qattiq holdagi LEDlarning yorug'likka aylantiruvchi elementlarida kadmiy 1 mm yorug'lik chiqaruvchi yuzaga 10 mg gacha	Doimiy
34.	Elektr va elektron oynalar, shuningdek, eshiklar uchun ishlatiladigan, polivinilxlorid chiqindilaridan olingan aralashmalarni o'z ichiga olgan plastik profillardagi kadmiy va qo'rg'oshin, bunda qayta ishlangan qattiq PVX materialdagi konsentratsiyasi kadmiy og'irligi bo'yicha 0,1% va qo'rg'oshin og'irligi bo'yicha 1,5 % dan oshmasligi kerak.	2028-yil 28-maygacha
35.	Sotuvga chiqarilgan o'yinchoqlar yoki o'yinchoqlarning qismlarida erkin holatda bo'lgan benzil konsentratsiyasi o'yinchoq yoki o'yinchoqning bir qismi og'irligidan 5 mg/kg gacha	Doimiy

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-avgustdagi 517-son qaroriga
2-ILOVA

Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklash to'g'risidagi texnik reglamentni joriy etish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	1. Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarida xavfli moddalarni ishlatishni cheklashga doir amaldagi standartlar ro'yxatini tuzadi va xatlovdan o'tkazadi. 2. Texnik reglament talablariga rioya etilishini ta'minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan namunalarni olish, sinash va o'lchash usullarini belgilaydigan standartlar	Uch oy muddatda Bir oy muddatda

		ro'yxatlarini shakllantiradi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi.	
2-bosqich	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	Elektrotexnika va radioelektronika mahsulotlarining Texnik reglament talablariga muvofiqligini baholash uchun sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o'tkazish ko'lamini kengaytirish bo'yicha choralarni ko'radi.	Olti oy muddatda
3-bosqich	Energetika vazirligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	Texnik reglamentning maqsadlari, mazmuni va uni qo'llash tartibi to'g'risida aholini, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari, tadbirkorlik subyektlarini keng miqyosda xabardor qilishni ta'minlaydi.	Jadvalga muvofiq
4-bosqich	Tadbirkorlik subyektlari	1. Texnik reglamentni o'rganadi, mas'ul xodimlarni o'qitadi va Texnik reglamentni o'z faoliyatida joriy qiladi. 2. Muvofiqlikni baholash tartibotidan o'tkazish uchun tegishli mahsulot namunalarini Texnik reglament talablariga muvofiq tayyorlaydi.	Kelishilgan muddatlarda
5-bosqich	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Vakolatli davlat organlari	Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.	Belgilangan tartibda
6-bosqich	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	Texnik reglamentni qo'llash amaliyotini monitoring qiladi va ma'lumotlarni tizimli asosda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.	Har chorakda

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.08.2025-y., 09/25/517/0740-son; 21.02.2026-y., 09/26/66/0162-son)